



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



Шахриёр Шодиёрович Тураев Юридик хизматларнинг таркибида адвокатлик фаолиятининг ўрни ва унинг назарий масалалари	74
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Росулбек Исломович Пардаев Яшил иқтисодиёт шароитида халқаро экотуризмнинг замонавий концепцияси ва амалиёти	79
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Ўзбекистонда янги-музей туризмни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг мақсади ва вазифалари	83
Latofat Tolibovna Yuldosheva Tourism System: Tourism Supply and Bridging Components. Evidence from Samarkand	87
Shaxnoza Shuxrat qizi Xashimova Xorij mamlakatlarida sog‘lomlashtirish turizmi va uning rivojlanish xususiyatlari	93
Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов Халқаро туризм индустриясининг ривожланиш динамикаси, шаклланиш тенденциялари	99
Мохинур Ўлмас қизи Ўроқова Навой вилоятида сафари туризмни ташкил қилиш ва такомиллаштириш истиқболлари	104
Мухауво Вахрллоевна Хамроева Turizm sohasidagi hududiy transport xizmatlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili	109
Парвина Аслиддин қизи Холматова Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришнинг иқтисодий ва ижтимоий аҳамияти	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Sayohatni mustaqil rejalashtirishda qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari va uning bosqichlari	117
Анжим Айдосбаевна Ембергенова Қорақалпоғистон Республикасида замонавий туризмни ривожлантириш йўналишлари	123
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Гўзалхон Акром қизи Абдурашидова Маркетинг тизимида нархларни шакллантириш механизми тамойиллари ва усуллари	129
Мохиғул Эркиновна Ахтамова Стратегическое управление проектами в Республике Узбекистан: ключ к экономическому развитию	135
Nargiz Toxirovna Sattarova Mamlakatimizda sanoat korxonalarini boshqarish jarayonini takomillashtirish	139
ИНВЕСТИЦИЯ	
Акрам Одилович Очилов, Дурдона Хасан қизи Рахмонова Развитие экономики Кашкадарьинской области на основе внедрения инвестиций	143
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Jaxongir Rasulovich Zaynalov, Shaxnoza Maxmudovna Latipova Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy siyosatni rivojlantirish yo‘llari	148

МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ

Jaxongir Rasulovich Zaynalov – SamISI, “Moliya” kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.

Shaxnoza Maxmudovna Latipova – SamISI, “Moliya” kafedrasini dotsenti

IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA MOLİYAVIY SIYOSATNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya: maqolada mamlakatimiz moliya siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Mustaqillik yillarida davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ulardan foydalanish hamda takror ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlashda moliya siyosatining ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda moliya siyosatini amalga oshirishda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliya, moliyaviy siyosat, moliyaviy resurs, takror ishlab chiqarish, soliq yuki, budjet taqchilligi, davlat qarzi.

Kirish. Respublikamizda moliya siyosatini rivojlantirish va bu jarayondagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uning sir-asrorlarini chuqur o‘rganishga bo‘lgan harakat va talablarni ham kuchaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, amaldagi qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo‘jalik yuritish uchun muqobil variantlar kesimida moliyaviy munosabatlarni to‘g‘ri qo‘llash va qaror qabul qilishgina emas, balki moliyaviy fikrlashni shakllantirishni ham talab etadi. Moliyaviy fikrlashni shakllantirish esa moliyaviy munosabatlarga nisbatan ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi.

Moliya siyosatida yangi sifat o‘zgarishlari yuz berishi uchun uning tarkibiy turli yo‘nalishlariga, xususan, nazariy bilimlarga katta qiziqish uyg‘otishimiz zarur. Moliya siyosatini rivojlanishi ko‘p jihatdan iqtisodchi olimlarning ushbu masala bo‘yicha bilimi va nazariy tadqiqot natijalari, ularning voqelikni to‘g‘ri tushunishi va qabul qilish kuchlariga bog‘liq. Aynan shu jihati ushbu mavzuning bugungi kunda ham qay darajada dolzarb ekanligini ko‘rsatib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mahalliy olimlarimizdan T.S.Malikov tomonidan moliyaviy siyosatga takror ishlab chiqarishning alohida ehtiyojlarini qondirish va uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy resurslar bilan ta‘minlash uchun ijtimoiy boylikni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlariga yo‘naltiriladigan maqsad va vazifalarning yechilishini aniqlash degan keng ta‘rif berilgan. Ko‘rinib turibdiki, olim moliyaviy siyosatga davlat o‘z vazifalarini bajarishi orqali mamlakatda takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlashga oqilona ishlab chiqilgan moliyaviy siyosat orqali erishishi mumkinligini ta‘kidlagan [1].

Prof. M.T.Xaydarov esa moliya siyosatini uning tarkibiga kiradigan asosiy siyosat turlari nuqtayi nazaridan yoritishga harakat qilgan. Davlat moliya siyosatining aynan budjet-soliq siyosati va monetar siyosat orqali olib borilishiga e‘tibor qaratgan [2].

B.B.Usmanov tomonidan aholining turmush sharoitini oshirishda moliya siyosatining ahamiyati nuqtayi nazaridan yondashilgan. Aholining turmush darajasini oshirishda davlatning moliyaviy siyosati budjet xarajatlarini rejalashtirishga ham bog‘liq ekanligi ko‘rib chiqilgan [3]. Ko‘rinib turibdiki, insonlar yashashi, har tomonlama kamol topishi uchun turli-tuman ehtiyojlarni qondirish shart. Moliya ana shu ehtiyojlarni qondirish, ularni yaxshi hayot kechirishi uchun mukammal moliya siyosatini yaratadi.

Resurslar cheklangan, resurslarni takror ishlab chiqarib bo‘lmaydigan qismi – kamyob tabiiy resurslar, ulardan asrab-avaylab foydalanishni taqozo qiladi. Moliya siyosati obyektiv zaruriyat tufayli cheklangan resurslardan ham tejamkorlik bilan foydalanishning turli yo‘llarini topishga, ulardan oqilona foydalanish mexanizmlarini, kerak bo‘lsa, siyosat osti siyosatlarini yuritishga harakat qiladi.

Rus iqtisodchilari Sherbakov V.A., Prikhodko Ye.A. tomonidan moliyaviy siyosatga ta’rif berishda uning moliyaviy munosabatlar va moliya mexanizmi orqali amalga oshirilishiga urg’u berishgan [4].

Lixachev O.N., Shurov S.A., Mordovskaya Yu.V. esa moliyaviy siyosatga mikro darajada yondashib, korxonaga belgilangan maqsadiga erishishi uchun moliyani maqsadli shakllantirish va foydalanish bilan bog’liq chora-tadbirlar yig’indisi deya ta’rif berishgan [5, 6].

“Moliya siyosati ko’p qirrali iqtisodiy va ilmiy-amaliy hodisa bo’lib, bir qator o’ziga xos xususiyatlarga ega” degan fikrlar Vasileva M.V., Maliyev N.A., Perekrestova L.V. tomonidan bildirilgan [7].

Rus iqtisodchilari moliyaviy siyosatga moliyaviy menejment deb ham ta’rif berishgan [8].

Moliya siyosati hozirda dunyoviy mazmun kasb etgan. Lekin bu siyosatning o’ziga xos jihatlari mavjud. Har qanday siyosat ostida ishlab chiqarish, hayot faoliyatini rivojlantirish uchun uni har tomonlama to’g’ri baholash, idrok qilish jarayoni, uning natijasini umumlashtirish, xulosa chiqarish yotadi. Bu esa to’plangan bilim va tajribalar asosida uni baholagan holda ta’rifini ishlab chiqishni zaruriyat qilib qo’yadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida kompleks tahlil hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy siyosat mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab bu sohaga har tomonlama e’tibor berib kelinmoqda. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan voz kechib, amaliyotda o’z ijobiy ko’rsatkichlari bilan namoyon bo’lgan erkin bozor iqtisodiyotiga o’tish masalasi qo’yildi. Bu borada asosiy iqtisodiy o’zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda. Milliy iqtisodiyotning barcha yo’nalishlari bo’yicha moliyaviy siyosat olib borilmoqda. Shulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko’rsatib o’tish mumkin:

- Soliq to’lovchilarning soliq yukini pasaytirish orqali tadbirkorlik va tijorat faoliyatlarini jadallashtirish. Amaliy tajriba va maxsus adabiyotlardan ma’lumki, soliq yukini pasaytirishga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi bir qator omillar mavjud:

- Belgilangan soliq stavkalarini pasaytirish;
- Soliqqa tortish bazasini qisqartirish;
- Soliq to’lovchi subyektlar sonini ko’paytirish;
- Davlat tasarrufida bo’lgan ayrim budjet va budjetdan tashqari markazlashgan jamg’arma xarajatlarini xo’jalik subyektlari ixtiyoriga yoki joylardagi mahalliy o’z-o’zini boshqarish organlariga berish.

Soliq yukini pasaytirish borasida ijobiy natija berayotgan chora-tadbirlar keyingi yillar mobaynida jadal sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda. Birgina 1992-yilda joriy etilgan QQSni misol tariqasida oladigan bo’lsak, dastlab uning stavkasi 30 foiz belgilangan edi. Hozirgi paytda esa uning stavkasi 12 foizdan oshmayapti. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i 1995-yilda 38 foizni tashkil etgan. Bugungi kunda esa bu ko’rsatkich 15 foizni tashkil etadi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig’i 1995-yilda to’rtta shkalani tashkil etib, yuqori stavka 45 foiz bo’lgan bo’lsa, 2021-yilga kelib bu ko’rsatkich yagona 12 foizni tashkil etdi (hozirgi kunda ham shu stavka asosida soliqqa tortilmoqda). Mikrofirmalar va kichik biznes subyektlaridan olinadigan yagona soliq to’lovi 2005-yilda 15,2 foiz bo’lgan bo’lsa, uning o’rniga joriy yilda aylanmadan olinadigan soliq 4 foiz miqdorida belgilandi.

Endi masalaning ikkinchi yo’nalishiga diqqatni qaratadigan bo’lsak, unda davlat budjeti taqchilligini mamlakatda yaratilayotgan YAIMga nisbatan 1-3 foizdan oshib ketmasligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Ammo davlatning ijtimoiy siyosati, budjet siyosati doirasida hozirda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ushbu ko’rsatkichning YAIMga nisbatan 5 foizdan oshganligini ko’rishimiz mumkin.

Uchinchi yo’nalish davlat budjeti taqchilligini noiflyatsion manbalardan moliyalashtirishni ta’minlash. Odatda, davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirishning bir necha manbai mavjud. Jumladan, xalqaro moliya bozorida davlat qimmatli qog’ozlarini joylashtirish,

solliqlar stavkasini oshirish va turlarini ko‘paytirish, davlat budjeti xarajatlarini kamaytirish, muomalaga davlat g‘aznachilik obligatsiyalarini chiqarish orqali taqchillikni moliyalashtirishni amalga oshirish mumkin.

Ammo qayd etilgan manbalardan faqat muomaladagi davlat g‘aznachilik obligatsiyalari barqaror samaraga ega. Qolgan barcha manbalar vaqtinchalik moliyaviy yutuqqa erishishga imkon beradi. Bu holat iqtisodiyot rivojlanishiga va ijtimoiy qatlamning moliyaviy ahvoriga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Shu sababli, imkon qadar milliy valyutaning beqarorligiga olib kelmaydigan moliyaviy manbalar yordamida budget taqchilligini moliyalashtirishga qat‘iy amal qilib kelmoqda.

To‘rtinchi yo‘nalish mehnatga layoqatli aholi qatlamini ish bilan doimo ta‘minlashni jadallashtirish. Boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, O‘zbekistonning demografik tarkibida yoshlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hozirgi kunda 30 yoshgacha bo‘lgan aholi demografik qatlamning 60 foizdan ortig‘ini tashkil etmoqda. Bu, o‘z navbatida, yangi ish o‘rinlarini jadal tashkil etishni taqozo etadi. Shuning uchun ish bilan ta‘minlashning noan‘anaviy, ya‘ni kasanachilik, uy sharoitida ishlashga me‘yoriy sharoit yaratish kabi ish shakllarini yanada kengroq joriy etish lozim.

Beshinchi yo‘nalish, mamlakatning ichki va tashqi qarzini minimal darajaga keltirish.

Davlatning ichki qarzlari fuqarolar, shuningdek, tijorat va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik subyektlari o‘z moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi natijasida vujudga keladi. Bundan tashqari, ichki qarzdorlar davlatning muomalaga uzoq muddatli obligatsiyalar chiqarishdan paydo bo‘ladi. Tashqi qarzlari asosan ikki manba hisobidan shakllanadi: birinchisi, xorijiy mamlakatlardan olingan qarzlari bo‘lsa, ikkinchidan, xalqaro moliya muassasalaridan olingan muddatli kreditlardir.

Hozirgi paytda Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan davlatlar uchun iqtisodiy mezonlar ishlab chiqilgan. Mazkur mezonlarning birida davlatning ichki va tashqi qarzlari yig‘indisi mamlakatda yaratilayotgan YAIMning 60 foizidan, ayrim manbalarda esa 75 foizdan oshib ketmasligi qayd etilgan.

Oltinchi yo‘nalish mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘atlantirish. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning amaliy tajribasidan ma‘lumki, milliy iqtisodiyotni muvofiqlashtirishda bir qator iqtisodiy kategoriyalar ishtirok etadi. Shular ichida investitsiyalar muhim o‘rin tutib, mamlakatda yaratilayotgan YAIM o‘sishiga bevosita ta‘sir qiladi. Shuning uchun istiqolning dastlabki kunlaridan boshlab, chet el investitsiyalari, investorlar faoliyatini va investitsion jarayonni muvofiqlashtiruvchi me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi va ular davr talabiga mos ravishda takomillashtirilmoqda. O‘z vaqtida qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar va malakali kadrlar tayyorlanayotganligi sababli, keyingi yillarda investitsiya sur‘atlari jadallashib bormoqda.

Yettinchi yo‘nalish, dunyoda bugungi iqtisodiy va siyosiy, tabiiy muvozanat o‘zgarayotgan davrda iqtisodiy o‘sish va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish sur‘atlarini tiklash, aholi bandligini oshirish, daromadlarini ko‘paytirish va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash. Mamlakatimizda olib borilayotgan moliya siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib milliy iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash orqali YAIMning o‘sishiga erishish, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni belgilangan maqsad darajasida ta‘minlash bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida aks etilgan yettita ustuvor yo‘nalishdagi moliyaviy siyosat mustaqil O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, moliyaviy siyosat qiymat yaratilishi va unga xizmat qiluvchi barcha munosabatlar yig‘indisidir. Aynan moliyaviy trayektoriyalarda u qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, ya‘ni budget siyosati, soliq siyosati, kredit siyosati, investitsiya siyosati, narx siyosati, moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan holda uzviy bog‘lanishda harakat qilishganda maqsadga samarali erishish mumkin bo‘ladi.

Misol uchun, budget taqchilligi qayd etilganda biz budget va soliq siyosatlari o‘rtasidagi uzilishlarni qidirib topishimiz va moliya siyosatini aynan yuzaga kelgan muammoning yechimiga

qaratishimiz lozim bo‘ladi. Ammo muammoni hal etishda moliya siyosatining boshqa turlarini ham unga qaratish muhimdir. Ularning muhimligi yuz berishi mumkin bo‘lgan makro-mikro ko‘rsatkichlarni belgilangan qizil chiziqdan o‘tib ketmasligi bilan baholanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, hozirgi sharoitda ishlab chiqilgan davlat moliya siyosati konsepsiyasining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini butun choralar bilan oshirish asosida jamiyat a‘zolarining turmush farovonligi darajasini ta‘minlashdan iborat. Moliya strategiyasining ijtimoiy yo‘naltilganligi xalq farovonligini oshirishga yuboriladigan moliya resurslarini ko‘paytirish imkoniyatlarini qidirib topishda namoyon bo‘libgina qolmay, balki iqtisodiy siyosatning bosh maqsadiga butunlay yangicha yondoshuvda ham namoyon bo‘ladi va endilikda aholi turmush darajasi va ishlab chiqarishning o‘shirishini moliya resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Mamlakatimizda davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini ta‘minlash maqsadida quyidagilarga erishishimiz lozim:

1. Moliya siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat ichki va tashqi qarzlarning kamayishiga, davlatning oltin-valyuta zaxiralarining ortishiga, inflyatsiyani jilovlashga, budjet defitsitining kamayishiga, eksport salohiyatini oshishiga, YAIM ko‘payishiga, mamlakat tovarlari raqobatbardoshligining kuchayishiga olib kelmog‘i lozim.

2. Moliyaviy siyosat davlat moliyaviy resurslarini oshishiga zamin tayyorlashi lozim.

3. Davlat moliyaviy resurslari – bu YAIM va milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlatning qo‘lidagi u yoki bu vaqtda bo‘lgan pul daromadlari va jamg‘armalari yig‘indisidir.

4. Moliyaviy resurslarning hajmi va tarkibi ishlab chiqarish masshtablari qancha yirik. Uning samaradorligi yuqori bo‘lsa, moliyaviy resurslarning hajmi shuncha katta bo‘ladi. O‘z navbatida, ishlab chiqarishga jalb qilingan moliyaviy resurslar uning o‘shirishiga va takomillashuviga shart-sharoit yaratadi.

5. Mamlakat iqtisodiyotida yuritiladigan moliyaviy siyosat orqali moliyaviy resurslar jamlanishi va davlatning u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy dasturini amalga oshirishi uchun u qayta taqsimlangan holda xizmat qilishi lozim.

6. Budjet siyosati, soliq siyosati, pul siyosati, kredit siyosati, baho siyosati, investitsion siyosat, ijtimoiy moliyaviy siyosat, boj siyosatlarini qo‘llash orqali jamiyatning turlari sohalariga moliyaviy resurslar oqilona va ma‘lum maqsadlarni amalga oshirish uchun sarflanishi lozim.

7. Moliyaviy siyosatni asosiy yo‘nalishlardan biri – moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyliги va uzluksizligini ta‘minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potentsiali barcha o‘zgarishlarning mustahkam moddiy bazasi bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. – 969 b.

2. Xaydarov M.T. Davlat moliyasini boshqarishning dolzarb masalalari // Iqtisod va moliya, 2016. №6, 54-64 b. <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-moliyasini-bosh-arishning-dolzarb-masalalari/>

3. Usmanov B.B. Aholi turmush farovonligi va unda davlat moliyaviy siyosati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, noyabr, 410-417 b.

4. Shcherbakov V.A. Kratkosrochnaya finansovaya politika: ucheb. posobie [Short-term financial policy: a manual]. Moscow, KnoRus Publ., 2007, 272 p.

5. Лихачева О.Н., Щуров С.А. Долгосрочная и краткосрочная финансовая политика предприятия: учеб. пособие / под. ред. И.Я. Лукасевича. М.: Вузовский учебник. 2007. 288 с.

6. Мордовская Ю.В. Долгосрочная и краткосрочная финансовая политика предприятия: учеб. пособие. М.: Элит. 2009. 272 с.

7. Якушев М.Ф. Финансовая политика организации: понятие, цели и этапы формирования // Финансы и кредит. 36 (612) – 2014, с. 37-44.

8. Шохин С.О., Гермогентова М.Н., Шохин Е.И., Серегин Е.В. Финансовый менеджмент: учеб. Для вузов. М.: КноРус. 2008. 480 стр.

<p style="text-align: center;">Дж.Зайналов, Ш.Латипова</p> <p style="text-align: center;">Пути развития финансовой политики в условиях либерализации экономики</p> <p>Аннотация: в статье раскрыты особенности финансовой политики. В ней подчеркивается значение финансовой политики в обеспечении непрерывности формирования государственных финансовых ресурсов, процессов их использования и воспроизводства в годы независимости. Приведены существующие проблемы в реализации финансовой политики и научные предложения по их устранению.</p> <p>Ключевые слова: финансы, финансовая политика, финансовый ресурс, воспроизводство, налоговое бремя, дефицит бюджета, государственный долг.</p>	<p style="text-align: center;">J.Zaynalov, Sh.Latipova</p> <p style="text-align: center;">Ways to develop financial policy in the context of economic liberalization</p> <p>Abstract: the article reveals the features of financial policy. It emphasizes the importance of financial policy in ensuring the continuity of the formation of state financial resources, the processes of their use and reproduction during the years of independence. The existing problems in the implementation of financial policy and scientific proposals for eliminating them are presented.</p> <p>Keywords: finance, financial policy, financial resource, reproduction, tax burden, budget deficit, public debt.</p>
--	--

Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li Qilichov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Menejment” kafedrasii assistent-stajjori

ISLOMIY BANKLAR, INSONLARNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: maqolada Islom moliyasiga bag‘ishlangan jadal rivojlanish va turli iqtisodiy inqirozlarga qaramasdan barqaror o‘shirish sur‘atlariga ega bo‘lgan islom bank ishining pul-kredit siyosatini tartibga solishga qaratilgan mexanizmlari, O‘zbekistonda Islomiy bank xizmatlarini rivojlantirishda qanday islomiy mexanizmlardan foydalanish mumkinligi, ularning amaliyotda qanday ahamiyati mavjudligi va O‘zbekiston sharoitida ularni qo‘llash imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, islom banki, islom bank ishi, pul-kredit siyosati, musharaka (birlashuv), murabaha (mudlo), ijara (ijara), mudaraba (sahibkor-mudarib munosabati), salam (avans to‘lov shartnoma).

Kirish: Islomiy banklar, islom moliyasi prinsiplariga muvofiq ravishda faoliyat yuritishadi. Islomiy banklar pul-kredit siyosatini foizsizlik asosida boshqarishadi. Bu esa, kredit so‘rovchilari uchun foizsiz kreditlar taqdim etish va kredit muddati davomida tijorat operatsiyalariga muvofiq foyda olish imkoniyatini yaratishni anglatadi.

O‘zbekiston islom banklarini rivojlantirishda, bir qancha asosiy chora-tadbirlar ko‘rish mumkin. Birinchi navbatda, islom banklarining moliyaviy tuzilishi va boshqaruv shakllari texnik taraqqiyotlar bilan moslashtirilishi kerak. Bu, moliyaviy shaffoflikni oshirish, moliyaviy nazorat tizimini kuchaytirish, xizmatlar va mahsulotlar portfelini diversifikatsiyalash, va iste‘molchi moliyaviy ma‘lumotlarga oid innovatsiyalar o‘rniga kiritishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchisi, islom banklarining ma‘lumotlar texnologiyalarini joriy etish va ularni kredit beradiganlar bilan o‘zaro aloqada ishlatishga tayyorlash kerak. Bu, banklar uchun mijozlarga eng muhim bo‘lgan mahsulotlarni taqdim etish va xizmatlarni taqdim etishda samarali bo‘lishadi.

Uchinchidan, islom banklari va iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida hamkorlikni

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.